

## Buxoro viloyatida 2023- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

### Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -  
4 193,4 mlrd. so‘m**

**O‘sish sur’ati -  
56,7 %**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 193,4** mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan **56,7 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **2 370,7** mlrd. so‘m yoki **56,5 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **1 233,6** mlrd. so‘m, yoki **29,4 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **488,5** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **11,6 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **3 704,9** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **88,4 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	4 193,4	5,2	16,8	12,6	8,6	56,5	0,3	-
Buxoro sh	715,0	6,5	32,4	14,3	11,2	35,6	-	-
Kogon sh	62,5	4,2	17,0	19,7	5,7	53,4	-	-
Olot	191,8	12,9	8,3	18,2	11,2	49,4	-	-
Buxoro	363,7	1,4	34,2	13,7	9,2	41,5	-	-
Vobkent	130,1	7,8	34,7	21,6	18,4	17,5	-	-
G'ijduvon	252,7	3,9	3,6	21,3	12,7	57,3	1,2	-
Kogon	546,1	0,8	3,5	6,8	6,7	82,2	-	-
Qorako'l	461,8	2,6	2,2	6,9	2,1	84,3	1,9	-
Qorovulbozor	143,7	0,1	18,6	4,4	7,2	69,7	-	-
Peshko'	216,7	4,9	16,5	21,7	8,1	48,8	-	-
Romitan	884,5	6,5	15,3	6,2	5,6	66,4	-	-
Jondor	120,2	8,7	19,6	29,8	20,6	21,3	-	-
Shofirkon	104,6	22,7	17,8	32,3	15,8	11,4	-	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish  
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>4 193,4</b>	<b>56,7</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan:</b>	<b>488,5</b>	<b>121,0</b>	<b>11,6</b>
Respublika byudjeti	217,6	2,1 m.	5,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	11,9	42,1	0,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	259,0	95,1	6,1
<b>Markazlashmagan:</b>	<b>3 704,9</b>	<b>52,9</b>	<b>88,4</b>
Korxona mablag'i	705,8	90,1	16,8
Aholi mablag'i	527,8	101,6	12,6
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	2 111,7	40,9	50,4
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	359,6	68,6	8,6


## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

### Markazlashgan




### Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **1885,1** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **45,0** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **1 585,1** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **37,8%** i) va boshqa xarajatlarga **723,2** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **17,2** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tashish va saqlash faoliyati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **1 130,4** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **27,0** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **22,7** % (yoki **952,5** mlrd. so'm), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **12,4** (yoki **519,4** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **8,6** % (yoki **360,2** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **6,7** % (yoki **280,7** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **8,0** % (yoki **337,2** mlrd. so'm), qurilishga **3,0** % (yoki **127,5** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **2,3** % (yoki

**95,3** mlrd. so‘m), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilishga **1,7** % (yoki **71,6** mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga **0,9** % (yoki **37,9** mlrd. so‘m), ta‘limga **0,9** % (yoki **40,0** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **5,8** % (yoki **240,7** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida **2 370,7** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **56,5** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **43,7** % ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **940,4** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **22,4** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **1 430,3** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **77,6** % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tashish va saqlashga **877,8** mlrd. so'm (yoki **37,0** %), ishlab chiqarish sanoatiga **733,9** mlrd. so'm (yoki **31,0** %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **404,9** (yoki **17,1** %), tog'-kon sanoatiga **163,4** mlrd. so'm (yoki **6,9** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **78,1** mlrd. so'm (yoki **3,3** %), qurilishga **29,6** mlrd. so'm (yoki **1,3** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **25,3** mlrd. so'm (yoki **1,1** %) va boshqa faoliyat turlariga **57,7** mlrd. so'm (yoki **2,3** %) to'g'ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so‘mda)

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsi- yalar	O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	2 370,7	905,7	259,0	1 206,0
Buxoro sh	254,8	9,9	213,5	31,4
Kogon sh	33,4	1,2	8,5	23,7
Olot	94,7	57,9	36,8	-
Buxoro	150,6	149,8	-	0,8
Vobkent	22,8	-	-	22,8
G‘ijduvon	144,8	144,8	-	-
Kogon	448,9	6,7	0,2	442
Qorako‘l	389,3	386,7	-	2,6
Qorovulbozor	100,2	-	-	100,2
Peshko‘	105,9	91,2	-	14,7
Romitan	587,8	45,6	-	542,2
Jondor	25,6	-	-	25,6
Shofirkon	11,9	11,9	-	-

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **884,5** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **40,6** % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro shahri egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **715,0** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **80,2** ni tashkil qildi. Kogon tumani **546,1** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **21,6** % ni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami</b>	<b>2 082,9</b>	<b>55,7</b>
Buxoro sh	2 467,2	78,7
Kogon sh	979,7	102,8
Olot	1 862,1	76,5
Buxoro	2 075,8	63,9
Vobkent	890,8	127,6
G'ijduvon	795,2	135,8
Kogon	6 595,7	21,2
Qorako'l	2 717,8	5,2 m.
Qorovulbozor	7 331,7	51,4
Peshko'	1 678,5	3,0 m.
Romitan	5 928,4	39,9
Jondor	658,8	79,2
Shofirkon	566,9	155,7

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **7 331,7** ming so'mni, o'sish sur'ati **51,4 %** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Kogon tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **6 595,7** ming so'mni, o'sish sur'ati **21,2 %** ni tashkil qildi. Romitan tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **5 928,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **39,9 %** ni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

2023- yilning yanvar – mart oylarida umumiy maydoni **274,8** ming kv.m. bo‘lgan **1 023** xonadonli **855** ta turar-joy ishga tushirildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **99,5** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **193,2** ming kv.m bo‘lgan **606** ta xonadonli **606** ta turar joylar qishloq joylariga to‘g’ri keladi. (O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **98,1 %**) Turar-joylarni qurilishiga **331,5** mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**